

Ilm-fan, ta'lif va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida ekologik barqaror yechimlar

// 14.07.2025

<https://uzkmyosanoat.uz/oz/press/news/ilm-fan-ta-lim-va-ishlab-chiqarish-integratsiyasi-asosida-ek>



Mamlakatimizda kimyo sanoatini barqaror va ekologik yo'naltirilgan rivojlantirish maqsadida "O'zkimyosanoat" AJ ilm-fan, ta'lif va ishlab chiqarishni o'zaro integratsiya qilgan holda yangi loyihalarni amalga oshirmoqda.

Ana shunday amaliy tashabbuslardan biri "Qizilqum fosforit kompleksi" MCHJdagi shlam to'plagichlarda yig'iladigan texnogen suvlarni xlor ionlaridan samarali tozalash loyihasidir. Ushbu loyiha Jamiyatning Innovatsiya va yangi texnologiyalarni joriy etish bo'limi Toshkent kimyo-texnologiya instituti Noorganik moddalar fakulteti bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda.

Loyihadan ko'zlangan asosiy maqsad atrof-muhitni muhofaza qilish, qayta ishlash jarayonlarini samarali tashkil etish va suv resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati